
Xojiqishloq MFY: Ravon yo'llar - obod va farovon manzillarga eltar

Yangi O'zbekistonda el aziz, inson aziz!

📍 Rishton tumanida qishloqlar yo'llarini ta'mirlash bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar navbati "Xojiqishloq" mahalla fuqarolar yig'ini hududida joylashgan Qahramon ko'chasiga yetib keldi. Hozirgi vaqtda ushbu mahallaning ichki ko'chalari beton qorishma bilan qoplanib, yo'llar yanada ravonlashmoqda .

???? -Keyingi yillarda yurtimizda juda katta o'zgarishlar bo'lmoqda. Nafaqat tuman markazida, balki chekka qishloqlarda ham bunyodkorlik ishlariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Biz ham ko'chalarimiz ta'mirlanishini orzu qilib kelardik. Mana bugun shu orzuimiz ushaldi, - deydi ushbu mahallada yashovchi Yunusjon Meliboev.

☐ Mamlakatimizda har sohada jadal kechayotgan islohotlar barchamizning hayotimizga sermazmun o'zgarishlarni olib kelmoqda. Xalq davlat idoralariga emas, davlat organlari xalqqa xizmat qilishi kerak, degan shiorning ilgari surilgani fuqarolarda Vatan ravnaqi uchun ko'tarinkilik, o'zgacha ishonch va hamjihatlik tuyg'ularni shakllanishiga xizmat qilmoqda.

☐ Ushbu amalga oshirilayotgan ishlar O'zbekiston Respublikasi Mustaqilligining 31 yilligi bayramiga munosib sovg'a bo'ldi.

Rishton tumani hokimligi Axborot xizmati

2022-08-24 06:13:56